

“CHET MAMLAKATLARDA VOYAGA YETMAGANLARNI JINOYAT-PROTSESSUAL HIMOYA QILISHDA ADVOKATNING ROLI: QIYOSIY TAHLIL”

*Ermakova Marjona Shavkat qizi,
Samarqand davlat universiteti,
Advokatlik faoliyati yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet mamlakatlar — xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiya — jinoyat-protsessual qonunchiligida voyaga yetmaganlarga nisbatan advokatlar ishtirokining huquqiy asoslari va amaliy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi. Har bir davlatda advokatlar nafaqat huquqiy himoyachi, balki pedagogik va psixologik yordamchi sifatida faoliyat yuritib, voyaga yetmaganlarning huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy reabilitatsiyasini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan. Maqolada ushbu davlatlar tajribasi asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar. Voyaga yetmaganlar, advokat, jinoyat-protsessual qonunchilik, huquqiy himoya, xalqaro tajriba, pedagogik yondashuv, ijtimoiy reabilitatsiya.

Bugungi kunda chet mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimida advokatlarning ishtiroki o'zining keng qamrovi, mustahkam huquqiy asoslari va voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ishlar bo'yicha alohida yondashuvlari bilan ajralib turadi. Chet el tajribasi ko'rsatmoqdaki, adolatli sudlov tizimi va inson huquqlarining ta'minoti, ayniqsa, voyaga yetmagan shaxslar bilan olib boriladigan protsessual harakatlarda advokatning faol roli orqali amalga oshiriladi.

Professor V.V. Lunev o'z tadqiqotlarida qayd etadiki, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha advokat nafaqat himoyachi, balki ma'lum ma'noda pedagogik va psixologik yordamchi sifatida ham faoliyat ko'rsatishi zarur¹. Uning fikricha, voyaga yetmaganlarning psixologik noyetukligi, ijtimoiy tajriba yetishmasligi va huquqiy ongining to'liq shakllanmaganligi advokatning ularga nisbatan yanada ehtiyotkorlik va mohirlik bilan ish yuritishini talab etadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, rivojlangan mamlakatlar qonunchilik tizimida voyaga yetmaganlar ishtirokidagi jinoyat ishlarida advokatlarning ishtiroki alohida tartibda nazarda tutilgan bo'lib, ularning huquqlari, vakolatlari va yondashuv uslublari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, **AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya** kabi davlatlarda voyaga yetmaganlar bilan bog'liq jinoyat

¹ Lunev V.V., Yosh jinoyatchilar va ularning sud himoyasi, Moskva, 2018.

protssslarida advokat ishtirokining tartibi hamda himoya mexanizmlari muayyan prinsiplar asosida shakllangan.

Endi ushbu mamlakatlar misolida voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat-protssual amaliyotda advokatlarning ishtiroki qanday yo'lga qo'yilganini ko'rib chiqamiz.

AQSH tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u yerda voyaga yetmaganlar ishtirokidagi jinoyat ishlarida "Miranda qoidalari" majburiy ravishda qo'llaniladi. "Miranda qoidalari" voyaga yetmagan shaxslar o'z huquqlarini to'liq bilishi va ulardan xabardor bo'lishi uchun xizmat qiladi. Surishtiruv yoki tergov jarayonida Lunev V.V., Yosh jinoyatchilar va ularning sud himoyasi, Moskva, voyaga yetmagan shaxsga, unga nisbatan ko'rilayotgan har qanday protssual harakatlar haqida to'liq va ravshan tushuntirish berilishi, xususan, sukut saqlash huquqi, o'zini oqlash uchun advokat yordamidan foydalanish huquqi, va unga qarshi aytilgan har qanday so'zlar sudda unga qarshi dalil sifatida ishlatilishi mumkinligi haqida ma'lumot berilishi shart².

Advokat esa bu jarayonda nafaqat himoyani ta'minlovchi shaxs sifatida, balki voyaga yetmagan shaxsning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha ham faol harakat qiladi. U voyaga yetmagan shaxsga sodir bo'layotgan jarayonlarning mohiyati, uning huquqlari va majburiyatlari haqida sodda va tushunarli tilda tushuntirish beradi. Advokat, shuningdek, voyaga yetmaganlarning himoya huquqlaridan to'liq va ongli tarzda foydalanishiga ko'maklashadi. Shuningdek, AQSH amaliyotida voyaga yetmaganlarga nisbatan alohida ehtiyotkorlik bilan yondashish talabi mavjud bo'lib, ular bilan ishlashda maxsus protssual kafolatlar qo'llaniladi, masalan, so'roq davomida ota-ona yoki ularning ishonchli vakilining ishtirokini ta'minlash.

Shu bilan birga, sud amaliyotida voyaga yetmaganlarning psixologik va emotsional rivojlanish darajasi inobatga olinadi. Sud va tergov organlari voyaga yetmaganlarning ko'rsatmalarining ishonchliligini baholashda ularning yoshiga, aqliy va hissiy holatiga alohida e'tibor qaratadi. AQSHda voyaga yetmaganlarni himoya qilish siyosati ularning huquq va manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishni, shuningdek, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integratsiyalash imkoniyatlarini yaratishni maqsad qilgan.

Buyuk Britaniyada esa voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarida ishtiroki bo'yicha "Youth Justice System" (Voyaga yetmaganlar adliya tizimi) ishlab chiqilgan. Ushbu tizimga ko'ra, har bir voyaga yetmagan shaxs majburiy ravishda advokat yordami bilan ta'minlanadi va bu yordam nafaqat tergov bosqichida, balki sud muhokamalarida ham davom ettiriladi. Tadqiqotchi Andrew Ashworth o'z asarlarida

² Адвокатура в России: Учебник для вузов (под ред. д.ю.н., проф. В.И. Сергеева). - 4-е изд., перераб. и доп. - "Юстицинформ", 2011 г

britan modeli doirasida voyaga yetmaganlarning "procesual zaiflik" kontseptsiyasi asosida himoyasi tashkil etilishini ta'kidlaydi³.

Tadqiqotchi Andrew Ashworth o'z ilmiy ishlarida britan modeli doirasida voyaga yetmaganlarning himoyasi "procesual zaiflik" ("procedural vulnerability") kontseptsiyasiga asoslanishini ta'kidlaydi⁴. Ushbu kontseptsiya voyaga yetmaganlarni yetuk bo'lmagan, hayotiy va huquqiy tajribasi cheklangan shaxs sifatida e'tirof etadi. Shu sababli, ular protsessual huquqlardan foydalanganda, maxsus yordam va himoya choralari muhtoj deb qaraladi. Ashworthning fikriga ko'ra, voyaga yetmagan shaxslarning har qanday protsessual harakatlarda qatnashishi ularning yoshiga mos tarzda tashkil etilishi, barcha huquq va majburiyatlari oddiy va tushunarli shaklda bayon qilinishi lozim.

Umuman olganda, Buyuk Britaniya tajribasi voyaga yetmaganlarni jinoyat protsesslarida ularning zaifligini hisobga olgan holda himoya qilish va ularni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ko'rsatadi.

Germaniya tajribasida voyaga yetmaganlarning jinoyat protsessida ishtiroki mustaqil va alohida tartibga solinadi. Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasiga (Strafprozessordnung – StPO) muvofiq, agar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi 18 yoshdan kichik bo'lsa, unga majburiy ravishda professional advokat tayinlanishi shart. Bu norma voyaga yetmagan shaxsning protsessual himoyasini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, uning huquqlari to'liq ta'minlanishini kafolatlaydi⁵.

Germaniya tajribasining o'ziga xos xususiyati shundaki, voyaga yetmaganlar jinoyat ishlarida nafaqat advokat ishtirokini, balki ijtimoiy-huquqiy yordam xizmatlarini ("Jugendgerichtshilfe") jalb qilishni ham talab etadi⁵⁴. Jugendgerichtshilfe — bu maxsus tashkilot bo'lib, u voyaga yetmagan gumonlanuvchining ijtimoiy sharoitlari, tarbiyaviy holati va shaxsiy ehtiyojlari haqida sud va tergov organlariga ma'lumot beradi hamda himoya choralari taklif etadi. Ushbu tizimda advokat va Jugendgerichtshilfe vakillari o'zaro hamkorlikda ishlaydi: advokat huquqiy himoya uchun javobgar bo'lsa, Jugendgerichtshilfe esa ijtimoiy rehabilitatsiya va tarbiyaviy yordamni ko'zlaydi.

Germaniya tajribasida voyaga yetmaganlarning protsessual huquqlari nafaqat huquqiy, balki pedagogik yondashuv bilan ham himoyalaniadi. Advokat va Jugendgerichtshilfe hamkorligi, sudlarning tarbiyaviy yo'naltirilganligi va protsessual zaiflik kontseptsiyasining tan olinishi Germaniya modelining boshqa davlatlar tajribasidan ajralib turuvchi asosiy xususiyatlaridandir.

Fransiyada voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha sud-huquq tizimi o'ziga xos va

³ Ashworth A., Human Rights, Serious Crime and Criminal Procedure, 2002 .

⁴ Youth Justice Board for England and Wales, "Youth Courts Explained," official guidelines, 2022.

⁵ Strafprozessordnung (StPO), §68.

murakkab tuzilishga ega bo'lib, bunda maxsus institut — "Juge des enfants" (Bolalar sudyasi) muhim o'rin tutadi. "Ushbu sudya faqat voyaga yetmaganlarga oid jinoyat, tarbiyaviy va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqishga ixtisoslashgan bo'lib, ularning manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga qaratilgan. Bolalar sudyasi nafaqat sud jarayonini olib boradi, balki voyaga yetmagan jinoyatchilarni ijtimoiy moslashtirish, ularni tarbiyalash va reabilitatsiya qilish masalalarida ham faol ishtirok etadi. Bu yondashuv jazolashdan ko'ra, tuzatish va ijtimoiy tiklash g'oyalariga asoslangan⁶".

Fransuz yuridik olimi Jean Pradelning ta'kidlashicha, voyaga yetmagan shaxslarni so'roq qilish faqat ularning himoyachisi – advokat ishtirokida amalga oshirilishi shart. Advokat bu yerda faqat yuridik vakil emas, balki voyaga yetmagan shaxsning ruhiypsixologik holatini hisobga olgan holda, so'roqning uslubini, savollar berish shaklini, bosim o'tkazilmasligi va do'stona muhit yaratish kabi jihatlarni nazorat qiluvchi shaxs hisoblanadi. Pradelning fikricha, advokatlar tergovchilarga voyaga yetmaganlar bilan qanday muloqot qilish bo'yicha metodik yo'llanmalar berishi, ularning yoshiga mos, travma keltirib chiqarmaydigan so'roq shakllarini tanlashda bevosita ta'sir ko'rsatishi lozim⁷.

Italiya Respublikasida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinoyat ishlarini yuritish alohida tartibga solinadi. Italiya Jinoyat-protsessual kodeksida bu toifa shaxslar uchun maxsus protsessual me'yorlar belgilangan bo'lib, ularning huquqiy va psixologik himoyasini ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi⁸. Xususan, har bir voyaga yetmagan gumonlanuvchiga davlat tomonidan tayinlanadigan himoyachi — "difensore d'ufficio" ishtirokida tergov va sud jarayonlari amalga oshiriladi. Bu advokat voyaga yetmaganlarning yuridik savodsizligi, hayotiy tajriba va psixologik noyetukliklarini hisobga olib, ularning manfaatlarini professional tarzda himoya qilish uchun tayinlanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat-protsessual ish yuritishda advokatlarning ishtiroki nafaqat huquqiy majburiyat, balki insonparvarlik va tarbiyaviy yondashuvning ajralmas qismidir. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi voyaga yetmaganlarning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni huquqiy jihatdan himoya qilishda kompleks va muvozanatli yondashuvlarni shakllantirgan.

Bu mamlakatlarda advokatlar nafaqat himoyachi, balki pedagog, psixolog, huquqiy targ'ibotchi va ijtimoiy yordamchi sifatida faoliyat olib boradilar. Ularning ishtiroki voyaga yetmaganlarning sudlov jarayonida o'z huquqlarini to'laqonli

⁶Code de la justice pénale des mineurs (CJPM), France.<https://www.legifrance.gouv>

⁷ Jean Pradel.(2016). Droit pénal spécial .19e édition, Cujas Éditions.

⁸ Codice di procedura penale italiano [Italiya Jinoyat-protsessual kodeksi]. Art. 11–23.<https://www.normattiva.it> .

anglashlari, noto'g'ri bosim ostida qolmasliklari hamda adolatli sud qaroriga erishishlariga xizmat qiladi. Xususan, har bir davlatda mavjud bo'lgan maxsus institutlar, protsessual kafolatlar va ijtimoiy yordam tizimlari voyaga yetmaganlarni jazolash emas, balki ularni jamiyatga qayta moslashtirish va ijobiy ijtimoiy rolga qaytarishga qaratilgan.

Shunday ekan, O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotida ham xalqaro tajriba asosida voyaga yetmaganlarga nisbatan protsessual harakatlarda advokatlarning rolini kuchaytirish, ularning maxsus tayyorgarligini ta'minlash, ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarni joriy etish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, inson huquqlarini to'laqonli ta'minlashga, sudlov adolatini qaror toptirishga va yosh avlodni sog'lom jamiyat a'zosi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashworth, A. (2002). *Human Rights, Serious Crime and Criminal Procedure* (Hamlyn Lectures, 53). Sweet & Maxwell. https://books.google.com/books/about/Human_Rights_Serious_Crime_and_Criminal.html?id=VaBsQgAACAAJOnline+Books+Page+2Google+Books+2Open+Library+2
2. Pradel, J. (2012). *Droit pénal général* (19e éd.). Cujas. <https://www.lgdj.fr/droit-penal-general-9782254124084.htmlLibrairie+Lgdj.fr+3Librairie+Lgdj.fr+3>
3. Youth Justice Board for England and Wales. (2021). *Youth Justice Board Annual Report and Accounts, 2020 to 2021*. GOV.UK. <https://www.gov.uk/government/publications/youth-justice-board-annual-report-and-accounts-2020-to-2021GOV.UK+1GOV.UK+1>
4. Youth Justice Board for England and Wales. (2022). *Youth justice statistics: 2020 to 2021*. GOV.UK. <https://www.gov.uk/government/statistics/youth-justice-statistics-2020-to-2021GOV.UK+1GOV.UK+1>
5. United Nations. (1989). *Convention on the Rights of the Child*. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>
6. Council of Europe. (1950). *European Convention on Human Rights*. https://www.echr.coe.int/documents/convention_eng.pdf
7. UNICEF Innocenti Research Centre. (2005). *Juvenile Justice: International Perspectives*. <https://www.unicef-irc.org/publications/353-juvenile-justice-international-perspectives.html>